

Kanaldagi tindirgichlardan foydalanish

Gidrotexnika inshootlari va muhandislik konstruksiyalari kafedrasida dotsenti Norqobil Raxmatov bugun 30 noyabr 11.30 da Kanaldagi tindirgichlardan foydalanish mavzusida Ochiq ma'ruza o'tdi. O'qituvchi talabalarga mavzu bo'yicha quyidagi ma'lumotlarni berib o'tdi: yirik fraksiyali cho'kindilarni cho'ktiruvchi davriy yuvadigan gidroenergetik tindirgich, yirik fraksiyali cho'kindilarni cho'ktiruvchi uzluksiz yuvadigan gidroenergetik tindirgich, mayda fraksiyali cho'kindilarni cho'ktiruvchi davriy tozalanadigan irrigatsiya tindirgichi, ko'l tindirgichlari, D.Ya.Sokolov va I.K.Nikitin tindirgichlari haqida batafsil ma'lumotlar berib o'tdi.

Dotsent ma'lumotlarni tushintirish bilan birgalikda kanalning chizmalari, kanal tozalash jarayonida olingan fotolar bilan ham tanishtirib o'tib mavzuni boyitib bordi. Ma'ruzada institut professor-o'qituvchilari hamda talabalar ishtirok etishdi.



O'quv-uslubiy boshqarma uslubchisi Maftuna Tosheva axboroti